

BOJXONA TIZIMIDA PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH ISTIQBOLLARI

Alisher Abduraimovich Uzoqov - katta o'qituvchi

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona
qo'mitasining Bojxona instituti, Toshkent sh. Toshkent, O'zbekiston*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Bojxona institutida pedagog kadrlar zahirasini yaratish hamda bojxona xizmatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ushbu zahira ro'yxatiga bojxona sohasida ko'p yillar davomida xizmat qilgan va boy amaliy tajribaga ega bojxona xodimlarni kiritish masalalari ochib berilgan.

Tayanch so'zlar: Bojxona instituti, pedagog, kadrlarni tayyorlash, bojxonachi, tashqi iqtisodiy faoliyat

Ma'lumki, bojxona organlariga yuklatilgan asosiy vazifalar O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida" Qonuni bilan belgilangan. Bojxona to'lovlarini undirish, o'z vakolatlari dorasida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonunchilik buzilishlarining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda o'z vakolatlari dorasida ishtirok etish shular jumlasidandir [1].

Bojxona xizmatiga yuklatilgan ushbu vazifalarni to'laqonli bajarish, bojxona organlaridan yuksak mas'uliyatni talab etganligi bois, unda xizmat olib borayotgan xodimlardan chuqur bilim, yuqori malaka hamda katta tajribaga ega bo'lishni taqozo etadi.

Bojxona xodimi o'z xizmat vazifasini bajarishda, shu jumladan tegishli holatlar bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilishda amaldagi qonun hujjatlari normalarini bilishi va ularga asoslanishi lozim. Bunday qonun hujjatlari bir necha yuzlab hujjatlardan iborat bo'lib, ular jumlasiga halqaro shartnomalar va konvensiyalar, kodekslar, qonunlar, farmonlar, farmoyishlar, qarorlar, yo'riqnomalar, nizomlar, tartiblar va boshqa hujjatlar kiradi. Shuningdek, ushbu qonun hujjatlari zamon talabidan kelib chiqqan holda muntazam yangilanib boradi.

Bojxona xodimi tomonidan xizmat vazifasini amalga oshirish jarayonida noto‘g‘ri qabul qilingan qaror salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan,:

– rasmiylashtirilayotgan tovarlarning TIF TN kodini noto‘g‘ri belgilanishi, bojxona qiymatining noto‘g‘ri aniqlanishi, imtiyozlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi yoki bojxona to‘lovlarining noto‘g‘ri hisoblanishi va undirilishi natijasida Davlat byudjetiga yoki tadbirkorning moliyaviy ahvoriga ziyon keltiradi;

– tovarning kelib chiqish sertifikatiga noto‘g‘ri baho berilishi tarif preferensiyalarini noto‘g‘ri qo‘llashga olib keladi;

– jismoniy shaxslar tomonidan olib o‘tilayotgan qo‘l yuklari va bagajlarini rentgen-televizion nazorat tizimida aks etgan rentgen tasvirini noto‘g‘ri talqin qilinishi oqibatida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, qurol-yarog‘ va boshqa o‘ta havfli buyumlarni noqonuniy olib o‘tilishiga zamin yaratiladi.

Bojxona organlarining faoliyati ko‘p yo‘nalishlardan iborat bo‘lib, mazkur yo‘nalishlar bojxona nazoratini tashkil etish, daromadlar va bojxona statistikasi, valyuta nazorati, bojxona ekspertizasi, bojxona tekshiruvlari va surishtiruv, kontrabandaga qarshi kurashish va boshqalardan iboratdir. Ushbu yo‘nalishlarga doir bilimlar Bojxona instituti (keyingi o‘rinda Institut)da kursant va tinglovchilarga fanlar (modullar)ga ajratilgan holda o‘rgatiladi.

Oliy bilim yurtlari orasida faqatgina Institutda kursant va tinglovchilar tomonidan boshqa fanlar qatorida, maxsus fanlar (bojxona to‘lovlari, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi, bojxona qiymati va hokazolar) ham o‘zlashtirilishi darkor.

Ushbu fanlar bo‘yicha beriladigan bilimlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Masalan, tovarning bojxona to‘lovlarini hisoblash uchun uning bojxona qiymatini aniqlash, tovarning bojxona qiymatini aniqlash uchun esa uning TIF TN kodini bilish lozim.

Ma‘lumki, kadrlarni yuqori darajada tayyorlashda pedagog xodimning roli katta hisoblanadi. Boshqa oliy o‘quv yurtlaridan taklif etilgan pedagog bojxona sohasida amaliy tajribaga ega bo‘lmagani bois, amaliyotni va undagi muammolarni atroflicha tushuna olmasligi, natijada kursant va tinglovchilarga bu borada yetarlicha darajada bilimlarni bera olmasligi mumkin.

Shu sabab, Bojxona institutida bojxona ishiga oid bilimlarni amaliyot bilan bog‘lagan holda yetkazib bera oladigan, katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan pedagoglar bo‘lishi maqsadga muvofiq. Ammo, amaliy tajribasi katta bo‘lgan hamma xodim ham o‘qituvchilik qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lavermaydi, hamda ular o‘zlarining bilimlarini kursant va tinglovchilarga yetarli darajada yetkazib bera olmaydilar.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” Qonuni 44-moddasiga binoan, tegishli ma‘lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. **Magistraturani**

tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega [2].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining “Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti o‘quv jarayoniga oid nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 11.06.2021-yildagi 136-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti professor-o‘qituvchilarining mehnatini normallashtirish to‘g‘risidagi Nizomning 10-bandiga muvofiq, zarur hollarda (ma’ruza mashg‘ulotlari hajmi ko‘p bo‘lganda yoki professor, dotsent va katta o‘qituvchilar yetarli bo‘lmaganda) **Institut Kengashining qaroriga asosan kamida 2 yillik ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo‘lgan, biroq ilmiy unvon va ilmiy darajasi bo‘lmagan o‘qituvchilarga bir o‘quv yilida 250 soatgacha hajmda ma’ruza mashg‘ulotlarini o‘tishga ruxsat berish mumkin.**[3]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-noyabrdagi PQ-3995-son qaroriga muvofiq, Institutni yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari va yo‘nalishlaridan ayrimlari sifatida:

bojxona organlari xodimlarining bilim va ko‘nikmalarini, shuningdek, vazifa va funksiyalarni samarali va oqilona amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan yuksak kasbiy mahoratini rivojlantirish va takomillashtirishni ta’minlovchi bojxona organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yagona tizimini tashkil etish;

o‘qitishning zamonaviy innovatsion shakl va usullari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish, nazariy tayyorgarlik va bojxona organlarining amaliy faoliyati bilan bog‘liqlikni ta’minlovchi amaliyot o‘tash tartibini takomillashtirish;

professor-o‘qituvchilar tarkibini yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahoratga, shu jumladan, amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan mustahkamlash belgilangan [4].

Bojxona institutida professor-o‘qituvchilarni yetishmasligi (masalan, bojxona auditori, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi yo‘nalishlar), bo‘sh o‘rinlarning mavjudligi bojxona tizimida kadrlar tayyorlashni talab darajasida amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Bojxona institutida mavjud kafedralar o‘qitish yo‘nalishiga ko‘ra umumta’lim va ixtisoslashtirilgan kafedralarga bo‘linadi.

Umumta’lim kafedralar sarasiga quyidagi kafedralar kiradi:

- “Axborot texnologiyalari va matematika” kafedrası;
- “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası;
- “Harbiy va jismoniy tayyorgarlik” kafedrası;
- “Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar” kafedrası.

Ixtisoslashtirilgan kafedralar sarasiga quyidagi kafedralar kiradi:

- “Bojxona nazorati” kafedراسي;
- “Bojxona tartibga solinishi va bojxona to‘lovlari” kafedراسي;
- “Maxsus-huquqiy fanlar” kafedراسي;
- “Bojxona ekspertisasi va tovarlarni tasniflash” kafedراسي;
- “Umumhuquqiy fanlar” kafedراسي;
- “Maxsus fanlar” kafedراسي.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3995-son qaroriga muvofiq, **tegishli sohalarda ilmiy, pedagogik yoki amaliy tajribaga ega bo‘lgan shaxslar Institutning professor-o‘qituvchilar lavozimlariga tayinlanishlari mumkinligi ko‘rsatilgan.** Ya’ni, Institutning umumta’lim kafedralarida mavjud bo‘sh o‘rinlarni tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchilar bilan jamlash uchun boshqa ta’lim muassasalarida tegishli fanlar bo‘yicha dars bergan nomzodlardan tanlov orqali ishga qabul qilish mumkin.

Ixtisoslashtirilgan kafedralarda mavjud bo‘sh o‘rinlarni esa bojxona sohasiga ixtisoslashgan kadrlar bilan, ya’ni boy amaliy tajribaga ega bojxonachilar bilan jamlash maqsadga muvofiqdir. Chunki, ular dars mashg‘ulotlarini mavzuni bevosita amaliyot bilan bog‘lagan holda kursant va tinglovchilarga yetkazib berilgandagina ularda haqiqiy nazariya va amaliyotning uyg‘unligidagi mustahkam bilimlar hosil bo‘ladi.

Hozirgi paytda Institutda professor-o‘qituvchilar lavozimidagi bo‘sh o‘rinlar soni 8 ta bo‘lib, ulardan 5 tasi umumta’lim kafedralarda va 3 ta ixtisoslashtirilgan kafedralardadir.

1-jadval

Bojxona institutida professor-o‘qituvchilar lavozimiga o‘tkazilgan va ushbu lavozimdan boshqa lavozimga tayinlangan xodimlar haqida

MA’LUMOT

Yil	BIga kelgan			BI dan ketgan		
	Umum-ta’lim	Ixtisoslash-tirilgan	Jami	Umum-ta’lim	Ixtisoslash-tirilgan	Jami
2020-yil	1	1	2	-	2	2
2021-yil	-	5	5	1	1	2
2022-yil	2	5	7	-	-	-
Jami	3	11	14	1	3	4

Institut shtat birligida bo‘lgan ayrim shahodatlangan professor-o‘qituvchilarning DBQning boshqa tarkibiy tuzilmalariga rotatsiya bo‘lishi natijasida ularning o‘rinlari bo‘shab qoladi. Ushbu joyning qisqa vaqtda tegishli pedagogik va soha bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassis bilan to‘ldirilmasligi natijasida, mazkur yo‘nalish bo‘yicha darslarni yuqori saviyada o‘tkazilishi oqsaydi. Shu bois, Institut shtat birligida paydo bo‘ladigan bo‘sh o‘rinlarni yuqori saviyada dars mashg‘ulotlarini o‘ta oladigan potensialga ega xodimlar bilan to‘ldirish borasida kadrlar zahirasiga ehtiyoj mavjud.

Yuqorida qayd etilganlarga binoan, mazkur zahirani bojxona organlarida uzoq yillardan beri, kamida 10 yil hizmat qilgan, magistr yoki oliy ta‘lim ma‘lumotiga tenglashtirilgan diplomga ega xodimlar orasidan shakllantirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, dars mashg‘ulotlarini o‘tish bo‘yicha ushbu xodimlar uchun Institutda maxsus o‘quv kurslari tashkil etish va kurs yakuni bo‘yicha, iqtidorli xodimlarni potensial pedagog kadrlar zahirasiga kiritish orqali bu boradagi kadrlar zahirasini shakllantirish taklif etiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida” Qonuni, O‘RQ-502, 18.10.2018 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-637, 23.09.2020 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining “Davlat bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti o‘quv jarayoniga oid nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 11.06.2021y.dagi 136-son buyrug‘i.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-noyabrdagi PQ-3995-son qarori.